MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№5

ILMIY ELEKTRON JURNALI

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o’g’li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o’g’li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: **№049864**

MUNDARIJA

1.	Meyliyev Obid Raxmatullaevich	Soliqlarning budjet daromadlaridagi ahamiyatini oshirish	7
2.	Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи	Тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик ва амалий асосларини такомиллаштириш	14
3.	Жабборов Насриддин Мирзаодилович, Юнусова Шохсанам Муротовна, Бебутова Зулайхо Хамидовна, Сафарова Севара Қахрамон қизи	Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижи модели учун барқарорлик таҳлили	19
4.	Мухамедова Севара Абдуллаевна	Тижорат банкларида кичик бизнес лойиҳаларини кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқариш тизими	27
5.	Abduqayumov Elyorbek Ulug’bek o’g’li, Yo’ldosheva Oygul Zokir qizi	Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi o’rni va ta’siri	33
6.	Umarova Shahnoza	Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	40
7.	Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g’li	Avtomobilsozlik korxonalarining xarajat samaradorligini ekonometrik modellashtirish	46
8.	Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati va uning ahamiyati	57
9.	Kurbanbayev Jurabek Eruvbayevich, Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	Auditorlik tekshiruvlarida tashqi tasdiqlardan foydalanish va ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish	66
10.	Абдурахманов Ўрол Наврўз ўғли	Акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллашни такомиллаштириш	71
11.	Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o‘g‘li	Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o‘rni	80
12.	Shodiyev Yashnarbek Baxriddin o‘g‘li	Davlat moliyaviy nazoratini modellar va metodologik yondashuvlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	92
13.	Muydinov Baxodirjon Numanovich	Korxonalarda ichki auditni tashkil etish va takomillashtirish	101
14.	Mirzanov Zakir Maratovich	Paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish	111
15.	Тожибоева Дилором	XXI ахборотлар асри – қарор қабул қилиш жараёнининг мураккаблашуви асри	116
16.	Нурхонов Комилжон Товкараевич	Яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва устуворликлари	124
17.	Saydullayev Nodirbek Narzullayevich	Inflyatsion targetirlash sharoitida markaziy bank valyuta intervensiyalari strategiyasini takomillashtirish mexanizmlari	132
18.	Хусаинов Равшан Рахимович	Сравнительный анализ налоговых систем зарубежных стран и трансформация их для Узбекистана	143
19.	Maxkamova Nazokat Umarali qizi	O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘rni	150
20.	Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari	156
21.	Kuliboyev Azamat Shonazarovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya, amaliyot va uslubiyot	165
22.	Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li	Raqamli texnologiyalar asosida budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish: Farg‘ona viloyati misolida	179
23.	Xasanova Shaxzoda Sarvarq qizi	Avtomatlashtirish davrida ayollarning mehnat bozoridagi transformatsiyasi: global tendensiyalar va O’zbekistonning 2030-yilgacha imkoniyatlari	188
24.	Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	Бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активлар билан боғлиқ молиялаштириш манбалари	194
25.	Худойкулова Дилора Дилмуродовна	Обеспечение надежности аудиторских доказательств при аудите долгосрочных активов	200
26.	To‘xtayev Umidjon Shuhrat o‘g‘li	Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari	209

27.	Djumaniyazov Shavkat Raximovich	Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari	216
28.	Siroj Zarina Rustambekovna	O‘zbekistonda demografik jarayonlarni statistik prognozlash va monitoring tizimini takomillashtirish	223
29.	To‘laev Safarmurod Boymuhammad o‘g‘li	Korporativ mijozlarga innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi	229
30.	Эрдонаев Аликул Халимович	Банк технологиялари ва масофавий банк хизматларининг турларидан фойдаланиш амалиёти	236
31.	Муродов Бобиржон Ҳаётжон ўғли	Иқтисодиётда яширин меҳнат ресурслари айланмаси: иш берувчиларни масъулияти ва норасмий бандликни бартараф этишнинг тизимли ечимлари	247
32.	Abdullayeva Shaxnoza Erkinovna	Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish	253
33.	Саттаров Тулкин Абдихалилович	Қишлоқ хўжалиги корхоналарини молиявий барқарорлигини баҳолаш моделлари	261
34.	Sanayev Javohir Shavkat o’g’li	Tijorat banklarida mijozning tranzaksion faolligiga asoslangan adaptiv tariflash mexanizmini takomillashtirish	271
35.	Хасанов Сабирджан Садикович, Раимова Мадинабону Сабирджан кизи	Оценка экономической необходимости строительства ветроэнергетических установок в Узбекистане	278
36.	Karimov Shohruh Ahmadullo o’g’li	O’zbekistonda buxgalteriya xizmatlari bozorining institutsional tuzilmasi: auditorlik va soliq maslahatchilari tashkilotlari reestrlari tahlili	286
37.	Karimqulov Jasur Imomboyevich, Xojanov Baxadir Omirbayevich	Bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligini integral baholash metodikasini takomillashtirish	292
38.	Kasimova Zilolaxon Botir qizi	O‘zbekiston bank tizimining miqdoriy kengayishi va moliyaviy barqarorlik normativlariga rioya etish darajasi: 2017–2025 yillar tahlili	301
39.	Олимова Қизлархон Тўра қизи	Тижорат банкларида муаммоли кредитларни эрта аниқлаш ва мониторинг тизимида мавжуд муаммоларнинг тизимли ечими	308
40.	Xolmurotov Fozil Saribayevich	Hududiy eksportning qo'shilgan qiymati va diversifikatsiya darajasini o'lchash: Xorazm viloyatida export quality index tahlili	314
41.	Jumaniyazov Iskandar Baxodirovich	To‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil etish, tannarxni kalkulyatsiya qilish va tahlil etish bo‘yicha xorijiy tajriba	327
42.	Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini prognozlashning ekonometrik asoslari	333
43.	Kabilova Zebo Babakulovna	Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari	341
44.	O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li	Ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv modellarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash	353
45.	Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich	Hududlarda investitsiyalar samaradorligini qisqa panel ma’lumotlari asosida o‘rta muddatga prognozlash: Toshkent viloyati misolida	358
46.	Akhmedova Shokhistakhon	Ways to improve sustainable financing mechanisms in Uzbekistan: capital needs, pilot instruments and scenario-based projections to 2030	368
47.	Xushvaqov Islombek Muxammadi o‘g‘li	Moliya bozorida qarz instrumentlari orqali savdolarni moliyalashtirish	381
48.	Qudratova Shaxnoza Shuxrat qizi	Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini statistik baholash usullari va mezonlari	388
49.	Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Sharapova Mashxura Azadovna	O‘zbekistonda monetar va fiskal siyosatning inflyatsiya va iqtisodiy o‘sishga ta’siri	399
50.	Гозиев Рзоиддин Чулпон угли, Ким Дмитрий Игнатьевич	Перестройка кадровой стратегии ритейла в эпоху цифровых технологий	406
51.	Qodirov Humoyun Tolibjon o‘g‘li	To‘qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini boshqarishda eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasi	413
52.	Abdujaborova Mahmura Toshmuxamadovna	Korxona moliyaviy holatining tizimli tahlili	419
53.	Olimova Maftuna Komil qizi	Raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar bozori talab va taklifi nomutanosibligini statistik baholash	429

54.	Маматова Эленур Рўзимурод қизи	Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини кредитлаш механизмини такомиллаштиришнинг илмий-услубий асослари	441
55.	Xodjaniyazov Shohruh Yuldashevich	Hududiy farovonlik indeksini prognozlash: Holt modeli va qiyosiy ekonometrik baholash	450
56.	Maxmasaidova Muslima Ubaydulla qizi	Ko‘p o’zgaruvchili regressiya modeli asosida iqtisodiy ko‘rsatgichlarning o‘zaro bog‘liqligini excel dasturi yordamida tahlil qilish	458
57.	Юсупов А.Т.	Илмий-технологик ва иқтисодий хавфсизлик тизимида олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги (методологик, услубий ва амалий жиҳатлари)	470
58.	Shirinov Uchqun Abduxalilovich	Ichki segmentar hisobotning tarkibi, ko‘rsatkichlari va shakllarini takomillashtirish	481
59.	Шахабутдинова Муаттар Зиятходжаевна	Институционально-регуляторные условия формирования цифровой модели оценки кредитоспособности заёмщиков	489
60.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar moliyaviy barqarorligini integral baholashning ikki blokli modeli (Entropiya vaznlari asosida)	496
61.	Fayazov Xasan Jaxongir ugli	Behavioral and psychological factors in ai use among 15-year-old students: learning and academic performance	504
62.	Urazbayeva Ilmira Konisbayevna	Moliyaviy kontrolling tizimida mavjud muammolar va ularning aksiyadorlik jamiyati moliyaviy samaradorligiga ta’siri	511
63.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Milliy iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari	518
64.	Isamitdinova Ra'no Rahimjanovna, Togayev Salim Sobirovich	Investitsiya loyihalari qiymati va muddati monitoringini o'zlashtirilgan qiymat usuli asosida takomillashtirish	525
65.	Alijonov Jamshid Alijon o‘g‘li	Qurilish korxonalarining investitsion salohiyatini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	533
66.	Jafarova Marjona Jafarovna, Xusanova Dilorom Shavkatovna	O’zbekistonda inflatsiya darajasining pasayish sabablari	539
67.	Axmedova Mavluda Shavkatovna	Tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklararo geterogenlik va samarasizlikni ajratib baholovchi panel modellar tizimi	544
68.	Baxromov Azizbek Alisher o‘g‘li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari	551
69.	Гулямова Асия Нурутдиновна	Рынок рассрочки (BNPL) и розничное кредитование в Узбекистане: рост, скрытая стоимость и риски закредитованности	557
70.	Adhamova Gulshoda Yaxyo qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida rahbarlik uslublarining jamoa samaradorligi va loyiha muvaffaqiyatiga ta’sirini baholash	563
71.	Eshmurodov Sulton Suvonqulovich	Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining aktiv va passivlarini muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish yo‘llari	570
72.	Alikulov Azamat Tuygunovich	O‘zbekistonda sukuk bozorini shakllanishida malayziya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari	580
73.	Madaminov G‘ayrat Madiyarovich	Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishning xizmat samaradorligi va kadrlar barqarorligiga ta’sirini ekonometrik baholash	587
74.	Абдуллаева Шахло Рустамовна	Цифровая трансформация бизнес-процессов как фактор повышения эффективности предприятий	593
75.	Нуралиева Мукаддас Мамуровна	Денежные переводы трудовых мигрантов как фактор макроэкономической устойчивости Республики Узбекистан: возможности и риски	601
76.	Азимова Феруза Маликовна	Технологическое развитие регионов Узбекистана и факторы его дифференциации	607
77.	Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekiston sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	616
78.	Azizova Zilola Lochinovna	Budjet tashkilotlarida qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobini takomillashtirish	626

BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA’MIRLASH XARAJATLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Azizova Zilola Lochinovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliyaviy hisob va hisobot”
kafedrasi katta o‘qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi,
E-mail: zilolaazizova85@gmail.com,
ORCID: 0009-0000-6025-2275

Annotatsiya. *Maqolada budjet tashkilotlarida qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobini takomillashtirish masalasi yirik davlat oliy ta’lim tashkiloti - Termiz davlat universitetining 2021-2025-yillardagi yillik moliyaviy hisoboti ma’lumotlari asosida tadqiq etilgan. Dinamik, tuzilmaviy va koeffitsientli tahlil natijasida ta’mirlash xarajatlarining 16,1 mlrd. so‘mdan 1,1 mlrd. so‘mgacha qisqargani, ta’mirlash intensivligining 23,1 foizdan 1,4 foizgacha pasaygani hamda besh yilda 25,8 mlrd. so‘mlik kapital ta’mirlash xarajatlari aktivlashtirilmasdan davr xarajati sifatida tan olingani aniqlangan. Muammolarni bartaraf etish uchun kapital ta’mirlash xarajatlarini aniqlashning uch elementli mezoni, “Bino va inshootlarga kapital qo‘yilmalar” schyoti tarkibida ish turlari bo‘yicha ishchi schyotlar, bino va inshootlar obyektlarining yagona registri hamda budjetdan tashqari mablag‘lar smetasida kapital ta’mirlash uchun sarflanmay qolgan qismni aynan shu maqsadda saqlab qolish mexanizmi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *budjet tashkiloti, qurilish-ta’mirlash xarajatlari, kapital ta’mirlash, kapitallashtirish mezoni, ishchi schyot; obyektlar registri, rivojlantirish jamg‘armasi, ta’mirlash intensivligi.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ЗАТРАТ НА СТРОИТЕЛЬСТВО И РЕМОНТ В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Азизова Зилола Лочиновна
Ташкентский государственный
экономический университет
Старший преподаватель кафедры
«Финансовый учет и отчетность»,
самостоятельный соискатель
E-mail: zilolaazizova85@gmail.com

Аннотация. *В статье исследуется совершенствование учёта строительно-ремонтных расходов в бюджетных организациях на основе данных годовой финансовой отчётности крупного государственного вуза - Термезского государственного университета за 2021-2025 годы. Динамический, структурный и коэффициентный анализ показал сокращение расходов на ремонт с 16,1 до 1,1 млрд сумов, снижение интенсивности ремонта с 23,1 до 1,4 процента, а также признание 25,8 млрд сумов расходов на капитальный ремонт расходами периода без их капитализации. Для устранения выявленных проблем обоснованы трёхэлементный критерий выявления расходов на капитальный ремонт, рабочие счета по видам работ в составе счёта «Капитальные вложения в здания и сооружения», единый реестр объектов зданий и сооружений, а также механизм сохранения неизрасходованной части средств на капитальный ремонт в сметах внебюджетных средств для использования по тому же назначению.*

Ключевые слова: *бюджетная организация, строительно-ремонтные расходы, капитальный ремонт, критерий капитализации, рабочий счёт, реестр объектов, фонд развития, интенсивность ремонта.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

IMPROVING THE ACCOUNTING OF CONSTRUCTION AND REPAIR COSTS IN BUDGETARY ORGANIZATIONS

Azizova Zilola Lochinovna
Tashkent State University of Economics
Senior Lecturer at the Department of Financial Accounting and Reporting, Independent Researcher
E-mail: zilolaazizova85@gmail.com

Abstract. *The article examines the improvement of accounting for construction and repair expenditures in budgetary organizations using the 2021-2025 annual financial statements of a large public university, Termez State University. Dynamic, structural and ratio analysis revealed that repair expenditures fell from 16.1 to 1.1 billion soums, repair intensity declined from 23.1 to 1.4 percent, and 25.8 billion soums of capital repair costs were expensed without capitalization. To address these problems, the study substantiates a three-element criterion for identifying capital repair costs, working accounts by type of work within the “Capital investments in buildings and structures” account, a unified register of buildings and structures, and a mechanism that preserves the unspent part of capital repair appropriations in extra-budgetary estimates for the same purpose in the following year.*

Keywords: *budgetary organization, construction and repair expenditures, capital repair, capitalization criterion, working account, asset register, development fund, repair intensity.*

Kirish

Jahon mamlakatlarida davlat sektori moliyaviy hisobi kassa metodidan hisoblash (accrual) metodiga izchil o‘tmoqda va bu jarayonda davlat aktivlari, avvalo bino va inshootlarning to‘liq hamda haqqoniy hisobi markaziy masalaga aylangan. Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi, CIPFA va IPSASBning so‘nggi hisobotiga ko‘ra, 2030-yilga borib dunyo yurisdiksiyalarining 56 foizi hisoblash metodida hisobot tuzishi, ularning 81 foizi esa davlat sektori uchun xalqaro standartlarga tayanishi kutilmoqda [1].

O‘zbekistonda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi [2] doirasida ijtimoiy infratuzilmani yangilash, davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish [3] hamda 2025-2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida belgilangan hisoblash metodiga bosqichma-bosqich o‘tish [4] vazifalari qo‘yilgan. Moliyaviy mustaqillik kengaygani sari binolarni saqlash va ta’mirlash xarajatlarining yuki muassasalarning o‘z mablag‘lari zimmasiga o‘tadi, ta’mirni moliyalashtirish to‘g‘risidagi qaror esa markazdan emas, muassasa darajasida qabul qilinadi.

Budjet kodeksi [5] va “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun [6] budjet tashkilotlarida aktivlar hisobining umumiy huquqiy asoslarini belgilaydi. Budjet hisobining 8-son standarti “Ko‘chmas mulk, bino va jihozlar” esa obyekt holatini yaxshilovchi keyingi xarajatlarni aktivlashtirish tamoyilini belgilaydi [7], biroq bu tamoyilni qo‘llash uchun hisobchida aniq indikatorlar ham, tasdiqlovchi hujjat talablari ham mavjud emas. Natijada kapital va joriy ta’mirlash o‘rtasidagi chegara subyektiv kasbiy mulohazaga qoldiriladi, xarajatlar obyektlar kesimida jamlanmaydi, ta’mir esa qoldiq tamoyilida moliyalashtiriladi. Mazkur maqolaning maqsadi - budjet tashkiloti misolida qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobining amaldagi holatini real hisobot ma’lumotlari asosida baholash va aniqlangan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan to‘rt yo‘nalishdagi takliflarni ilmiy asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Davlat sektorida aktivlarga keyingi xarajatlar hisobining me’yoriy asoslari xalqaro standartlarda shakllangan. IPSAS 17 keyingi xarajatlarni kelgusi iqtisodiy naf yoki xizmat

salohiyati mezoni asosida tan olishni, yirik komponentlarni alohida hisobga olishni va almashtirilgan qism qiymatini hisobdan chiqarishni talab qiladi [9]; 2025-yildan kuchga kirgan IPSAS 45 esa davlat sektoriga xos infratuzilma va meros aktivlari bo‘yicha talablarni chuqurlashtirgan [10]. AQSHda GASBning 34-son standarti infratuzilma aktivlari uchun holat baholashlariga asoslangan muqobil yondashuvni joriy etgan [11], davlat oliy ta’lim muassasalari uchun esa alohida 35-son standart amal qiladi [12]; federal darajada FASABning 42-son standarti kechiktirilgan ta’mir va texnik xizmatni o‘lchash hamda hisobotda ochib berishni majburiy qilgan [13]. Buyuk Britaniyada hukumat moliyaviy hisobot qo‘llanmasi komponentli yondashuv va kapitallashtirishning miqdoriy quyi chegaralarini belgilaydi [14], Rossiya Federatsiyasida esa davlat sektori uchun “Asosiy vositalar” federal standarti obyektni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish xarajatlarini uning qiymatiga qo‘shish tartibini nazarda tutadi [15].

Xorijlik tadqiqotchilardan M.Abdulrahman davlat sektori muassasalarida kapital xarajatlar hisobining amaliyotini [23], M.Goldsmith esa infratuzilma boshqaruvi va davlat aktivlarining barqarorligi masalalarini [24] tadqiq etgan; biroq ularning tavsiyalari asosan hisoblash metodiga to‘liq o‘tgan tizimlar uchun ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan A.Karimov, F.Islomov va A.Avloqulov [16], S.U.Mehmonov va D.Y.Ubaydullayev [17] ishlarida budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning umumiy masalalari, A.Ostonokulov tadqiqotlarida budjetdan tashqari mablag‘lar hisobi va hisoboti metodologiyasi hamda davlat sektorida xalqaro standartlarni qo‘llash [18, 19], A.S.Xodjayev ishida oliy ta’lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va ichki auditi [20], S.M.Buzrukxonov tadqiqotida oliy ta’limni moliyalashtirishni takomillashtirish [21], D.Abdujalilova ishida esa to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar hisobi [22] tadqiq etilgan. Muallifning avvalgi ishlarida mavzuning asoslari, xorij tajribasi va uslubiy jihatlari yoritilgan [25-27].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, budjet tashkilotlarida kapital ta’mirlash xarajatlarini tan olishning tekshiriladigan mezonlarga asoslangan yaxlit mexanizmi, ushbu xarajatlarni ish turlari va obyektlar kesimida hisobga olish tartibi hamda ta’mirni moliyalashtirishning barqarorligini ta’minlovchi smeta mexanizmi maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot obyekti sifatida davlat universiteti tanlangan. Universitet moliyaviy mustaqillik berilgan, keng bino-inshootlar majmuasiga ega va faoliyati uch manba - Davlat budjeti mablag‘lari, to‘lov-kontrakt tushumlari hamda budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotdir. Axborot bazasini universitetning 2021-2025-yillardagi yillik moliyaviy hisoboti tashkil etadi: balans (1-son shakl), xarajatlar smetasining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot (2-son shakl), to‘lov-kontrakt va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobotlar hamda nomoliyaviy aktivlar harakati to‘g‘risidagi hisobot (5-son shakl) [28]. Barcha ko‘rsatkichlar million so‘mda keltiriladi.

Ma’lumotlarning ishonchliligi bir necha protsedura orqali ta’minlandi: har bir shaklda yil oxiri qoldiqlarining keyingi yil boshi qoldiqlariga mosligi tekshirildi va besh yillik zanjir uzilishsiz tasdiqlandi; asosiy vositalar harakati balans ma’lumotlari bilan solishtirildi; hisobot shakllarining ikki avlodi o‘rtasidagi o‘tishda ko‘rsatkichlar yagona tuzilmaga keltirildi. Tahlil usullari sifatida dinamik (gorizontal) va tuzilmaviy (vertikal) tahlil hamda nisbiy ko‘rsatkichlar usuli qo‘llanildi. Ta’mirlash intensivligi koeffitsienti yillik ta’mirlash xarajatlarining yil boshidagi asosiy vositalar qiymatiga nisbati sifatida hisoblandi (Kint = Q / F). Sifat xulosalari uch mustaqil hisobot manbasini o‘zaro bog‘lash (triangulyatsiya) orqali tasdiqlandi.

Takliflarni ishlab chiqishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Takliflarning amaliy yaroqliligi universitet obyektlari bo‘yicha to‘ldirilgan toifalash qarori varaqlari va obyektlar registri namunalarida sinovdan o‘tkazildi.

Tahlil va natijalar

Ta’mirlash xarajatlarining besh yillik dinamikasi keskin va bir yo‘nalishli tendensiyani ko‘rsatdi (1-jadval). Xarajatlar 2021-yildagi 16 067,2 mln. so‘mdan 2024-yilda 1 141,8 mln. so‘mgacha - o‘rtacha yiliga 41 foizga qisqarib, 2025-yilda qisman 1 942,4 mln. so‘mga tiklangan. Ularning universitet umumiy kassa xarajatlaridagi ulushi 12,0 foizdan 0,3-0,4 foizgacha tushgan, chunki ayni davrda umumiy xarajatlar qariyb to‘rt baravar o‘sgan. Asosiy vositalar qiymati esa 78 645,7 mln. so‘mdan 150 408,1 mln. so‘mgacha ko‘tarilgan: aktivlar bazasi ikki baravar kengaygan sharoitda uni saqlash xarajatlari o‘n baravardan ortiq qisqargan.

1-jadval

Universitetda qurilish-ta’mirlash xarajatlarining hajmi va dinamikasi (mln. so‘m)

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Kapital ta’mirlash	9 765,5	12 029,0	3 666,8	13,0	296,0
Joriy ta’mirlash	6 301,7	2 220,8	925,1	1 128,8	1 646,4
Ta’mirlash xarajatlari - jami	**16 067,2**	**14 249,8**	**4 591,8**	**1 141,8**	**1 942,4**
Umumiy kassa xarajatlaridagi ulushi, %	12,0	10,9	2,7	0,3	0,4
Kapital ta’mir ulushi, %	60,8	84,4	79,9	1,1	15,2
Ta’mirlash intensivligi (Kint), %	23,1	18,1	4,8	0,9	1,4
Asosiy vositalar (yil oxiriga)	78 645,7	94 700,3	133 408,3	142 046,1	150 408,1

Manba: universitetning 2021-2025-yillardagi yillik moliyaviy hisoboti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Xarajatlar tuzilmasida ikki tub siljish qayd etildi. Birinchidan, kapital ta’mir ulushi 2021-2023-yillardagi 61-84 foizdan 2024-2025-yillarda 1-15 foizgacha tushgan, ya’ni universitet bazani yangilash rejimidan faqat kundalik saqlash rejimiga o‘tgan. Ikkinchidan, moliyalashtirish manbasi to‘lov-kontrakt mablag‘laridan (2021-yilda 100 foiz) rivojlantirish jamg‘armasiga (2025-yilda 100 foiz) to‘liq ko‘chgan. Budjet mablag‘lari smetasida esa besh yil davomida ta’mirlash moddalari umuman nazarda tutilmagan. Ta’mirlash intensivligi 23,1 foizdan 1,4 foizgacha pasaygan, eskirish koeffitsienti esa 36-37 foiz darajasida saqlanib qolgan (1-rasm).



1-rasm. Ta’mirlash xarajatlari va ta’mirlash intensivligi dinamikasi

Manba: 1-jadval ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tahlilning eng muhim topilmasi kapital qo‘yilmalar bo‘yicha olingan. Besh yilda 25,8 mlrd. so‘mlik kapital ta’mirlash xarajatlari amalga oshirilgani holda “Bino va inshootlarga kapital qo‘yilmalar” schyoti barcha hisobot sanalarida bo‘sh turgan, nomoliyaviy aktivlar harakati hisobotida “qurilgan (yaratilgan)” qatori bo‘yicha kirim qayd etilmagan va binolar qiymati ta’mir

hisobiga o‘smagan. Demak, kapital ta’mirlash xarajatlari aktivlashtirilmasdan davr xarajati sifatida tan olingan. Bu xulosa uch mustaqil hisobot manbasi orqali tasdiqlandi. Kam ko‘rsatish miqdori bino va inshootlar qiymatining qariyb 37 foiziga teng. Shuningdek, kassa va haqiqiy xarajatlar davrlar bo‘yicha mos kelmasligi (2022-yilda 7,7 mlrd. so‘mlik tafovut), xarajatlarning obyektlar kesimida jamlanmasligi va kapital ta’mirdan so‘ng xizmat muddati hamda amortizatsiya bazasining qayta ko‘rilmasligi aniqlandi.

Aniqlangan muammolarning umumiy ildizi - tan olish tamoyilining amaliy mexanizm bilan ta’minlanmaganidir. Shu asosda takomillashtirish to‘rt o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda amalga oshirildi.

Birinchi va markaziy yo‘nalish - xarajatlarni tan olishning tekshiriladigan mezonini yaratish. Kapital ta’mirlash xarajatlarini aniqlashning uch elementli mezoni texnik, vaqt va miqdoriy elementlar kombinatsiyasiga asoslanadi (2-jadval). Texnik element ishning obyekt konstruktiv qismlarini almashtirish yoki tiklashni o‘z ichiga olishi hamda uning holati yoxud xizmat muddatiga ta’sir ko‘rsatishini, vaqt elementi ish samarasining bir hisobot davridan ortiq davom etishini, miqdoriy element esa ish qiymatining obyekt jami qiymatining besh foizidan yoki hisob siyosatida belgilangan qat’iy quyi chegaradan yuqoriligini ifodalaydi.

2-jadval

Kapital ta’mirlash xarajatlarini aniqlashning uch elementli mezoni

Element	Mazmuni (indikator)	Tasdiqlovchi hujjat	Javobgar
Texnik	Konstruktiv qismlar almashtiriladi yoki tiklanadi; obyekt holati yoki xizmat muddatiga ta’sir bor	Texnik xulosa, nuqson dalolatnomasi	Xo‘jalik (kapital qurilish) bo‘limi
Vaqt	Ish samarasi bir hisobot davridan ortiq davom etadi	Ish turi tavsifi, loyiha-smeta hujjatlari	Reja-moliya bo‘limi
Miqdoriy	Ish qiymati obyekt qiymatining 5 foizidan yoki hisob siyosatidagi qat’iy quyi chegaradan yuqori	Smeta, bajarilgan ishlar dalolatnomasi	Buxgalteriya xizmati
Qoida	Kamida ikki element bajarilsa - xarajat kapitallashtiriladi	Toifalash to‘g‘risidagi qaror varag‘i	Bosh hisobchi

Manba: muallif ishlanmasi.

“Kamida ikki element” qoidasi ikki xavfni muvozanatlaydi: faqat texnik elementga tayanish subyektivlikni saqlab qoladi, faqat miqdoriy bo‘sag‘aga tayanish esa mazmunan joriy, ammo qimmat ishlarni asossiz kapitallashtirishga olib keladi. Har bir element o‘z hujjatiga bog‘langani bois mezon tekshiriladigan bo‘ladi: hisobchi ham, auditor ham qarorning asosini hujjatlardan ko‘ra oladi.

Mezonni qo‘llash toifalash qarori varag‘i orqali hujjatlashtiriladi. Varaq har bir ta’mirlash ishi bo‘yicha ish qabul qilinishidan oldin to‘ldirilib, unda obyekt va uning registrdagi kodi, ishning tavsifi, uch element bo‘yicha “ha/yo‘q” baholari tasdiqlovchi hujjatlarga havolalar bilan, yakuniy toifa hamda xo‘jalik bo‘limi, reja-moliya bo‘limi va bosh hisobchining imzolari qayd etiladi. Varaq uch bo‘linmaning kelishilgan qarorini rasmiylashtirib, texnik axborotning hisob qaroriga yetib bormasligi muammosini bartaraf etadi va yillar o‘tib ham har bir qarorning audit izini saqlaydi. Ichki nazorat vositasi sifatida varaqsiz kapital ta’mirlash moddasi bo‘yicha buxgalteriya yozuvi kiritish va to‘lov o‘tkazish taqiqlanadi.

Mezonning amaliy yaroqliligi universitet obyektlari bo‘yicha to‘ldirilgan uchta varaqda tekshirildi (3-jadval). Chegaraviy holat - oyna-eshik bloklarini almashtirish ishi mezon konstruksiyasining afzalligini yaqqol ko‘rsatdi: faqat miqdoriy bo‘sag‘aga tayanilganda 380,0 mln. so‘mlik, mazmunan kapital xususiyatli ish davr xarajatiga yozilib, binoning balans qiymati oshmay qolar edi. Aksincha, bosh o‘quv binosidagi bo‘yash ishlari qiymati sezilarli bo‘lsa-da,

birorta element bajarilmagani bois joriy toifada qoldi - bu qimmat, ammo mazmunan joriy ishlarning asossiz aktivlashtirilishining oldini oladi.

3-jadval

Uch elementli mezonni toifalash qarori varaqlarida sinash natijalari

Obyekt va ish	Qiymati, mln. so‘m	Texnik	Vaqt	Miqdoriy	Soni	Toifa
№ 2-talabalar turar joyi - tom qoplamasi va isitish tizimini yangilash	1 850,0	ha	ha	ha (43,5 %)	3	Kapital
Bosh o‘quv binosi - bo‘yash va joriy ta’mir ishlari	310,0	yo‘q	yo‘q	yo‘q (1,7 %)	0	Joriy
Filologiya fakulteti binosi - 148 ta oyna-eshik blokini almashtirish	380,0	ha	ha	yo‘q (4,05 %)	2	Kapital

Manba: muallif tomonidan universitet obyektlari bo‘yicha to‘ldirilgan toifalash qarori varaqlari asosida tuzilgan.

Amaldagi yagona schyotlar rejasiga muvofiq yangi qurilish, rekonstruksiya va kapital ta’mirlash xarajatlari 241 100 “Bino va inshootlarga kapital qo‘yilmalar” subschyotida umumiy tarzda to‘planadi, ish turlari bo‘yicha majburiy analitik kesim esa belgilanmagan [8]. Bunday holatda kapital xususiyatli xarajatlarning tarkibi hisobda ko‘rinmaydi va ularni davr xarajatiga o‘tkazish uchun hech qanday tizimli to‘siq mavjud bo‘lmaydi. Shu bois qurilish-ta’mirlash xarajatlarini ularning turlari kesimida mazkur subschyot tarkibida uchta ishchi schyotda hisobga olish taklif etildi (4-jadval).

4-jadval

“Bino va inshootlarga kapital qo‘yilmalar” schyoti tarkibida taklif etilayotgan ishchi schyotlar

Ishchi schyot	Nomi	Hisobga olinadigan xarajatlar	Ish yakunlangach
241 100/1	Bino va inshootlarni yangi qurishga kapital qo‘yilmalar	Yangi bino va inshootlarni barpo etish xarajatlari	221 100 “Bino va inshootlar” subschyotiga yangi obyekt sifatida o‘tkaziladi
241 100/2	Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilishga kapital qo‘yilmalar	Obyektning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘zgartiruvchi ishlar	221 100 subschyotida obyekt qiymatiga qo‘shiladi
241 100/3	Bino va inshootlarni kapital ta’mirlashga kapital qo‘yilmalar	Uch elementli mezon bo‘yicha kapital deb toifalangan ta’mir ishlari	221 100 subschyotida obyekt qiymatiga qo‘shiladi; almashtirilgan komponent hisobdan chiqariladi

Manba: muallif ishlanmasi.

Budjet hisobining 2-son standarti budjet tashkilotlariga schyotlar rejasiga qo‘shimcha analitik schyotlardan foydalanish huquqini bergani bois ishchi schyotlar subschyot kodini o‘zgartirmagan holda “/1”, “/2”, “/3” belgilari bilan ochiladi va har bir yozuvga obyekt kodi analitik belgi sifatida biriktiriladi. Aktivlashtirish yozuvlari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: mezon bo‘yicha kapital deb toifalangan ish dalolatnoma asosida qabul qilinganda tegishli ishchi schyot debetlanib, pudratchilar bilan hisob-kitoblar schyoti kreditlanadi; yirik konstruktiv qism almashtirilganda uning qoldiq qiymati hisobdan chiqariladi; ish yakunlangach to‘plangan xarajatlar 221 100 subschyotiga o‘tkaziladi; amortizatsiya esa yangilangan qiymat va qayta ko‘rilgan qolgan xizmat muddatidan hisoblanadi.

Yotoqxona misolida almashtirilgan eski tom qoplamasi va isitish tizimining brutto qiymati

420,0 mln. so‘m, jamg‘arilgan amortizatsiyasi 323,6 mln. so‘m bo‘lib, 96,4 mln. so‘mlik qoldiq qiymat moliyaviy natijaga o‘tkazildi; obyektning yangilangan qiymati 5 680,0 mln. so‘mni, qolgan xizmat muddati esa 22 yil o‘rniga 27 yilni tashkil etdi. Ichki nazorat vositasi sifatida nazorat tengligi joriy etiladi: kapital ta’mirlash moddasi bo‘yicha kassa xarajatlari 241 100/3 ishchi schyotining debet aylanmasi bilan har oyda solishtiriladi va tafovut yozma izohlanishi shart.

Tahlil tadqiqot obyektida qurilish-ta’mirlash xarajatlarining obyektlar kesimidagi jamlanma hisobi yuritilmasligini ko‘rsatdi: zarur ma’lumotlar inventar kartochkalari, bajarilgan ishlar dalolatnomalari va smetalarda tarqoq holda saqlanadi. Natijada qaysi binoga qancha mablag‘ sarflangani hisobda ko‘rinmay qolgan.

Muammoni hal etish uchun bino va inshootlar obyektlarining yagona registrini qo‘llash taklif etildi. Registr yangi hujjat emas, mavjud ma’lumotlarni yagona nuqtada jamlovchi elektron kartoteka bo‘lib, har bir obyekt bo‘yicha quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: identifikatsion rekvizitlar (kod, inventar raqami, joylashuvi, maydoni, foydalanish maqsadi); qiymat ko‘rsatkichlari (brutto qiymat, jamg‘arilgan amortizatsiya, qayta baholashlar); xizmat muddati; texnik holat baholari; ta’mirlash tarixi (sana, ish turi, toifasi, qiymati, moliyalashtirish manbai, qaror varag‘i raqami); yirik konstruktiv qismlar va ularning almashtirish rejasi; kechiktirilgan ta’mirlash ishlari hamda obyekt bo‘yicha nazorat ko‘rsatkichlari.

Har bir obyektga takrorlanmaydigan kod beriladi: guruh belgisi (OB - o‘quv-ma’muriy bino, TJ - talabalar turar joyi, IN - inshoot) va tartib raqami. Kod buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan tizimida analitik belgi sifatida faollashtiriladi va qurilish-ta’mirlash xarajatlariga oid har bir yozuvga majburiy biriktiriladi.

Registr namunalarida obyekt kesimidagi nazorat ko‘rsatkichlari hisoblandi: yotoqxona bo‘yicha ta’mirlash intensivligi 43,5 foizni, bosh o‘quv binosi bo‘yicha 1,7 foizni, filologiya fakulteti binosi bo‘yicha 4,05 foizni tashkil etdi; kechiktirilgan ta’mirning obyekt brutto qiymatiga nisbati bosh o‘quv binosi bo‘yicha 3,4 foiz, filologiya fakulteti binosi bo‘yicha 12,8 foiz bo‘ldi. Registr yillik inventarizatsiya, qayta baholash va toifalash hujjatlari bilan tutashadi, kechiktirilgan ta’mir ro‘yxatini shakllantirish uchun tayyor asos beradi hamda hisoblash metodiga o‘tishda dastlabki balansni shakllantirish ishining asosiy qismini oldindan bajaradi.

Moliyalashtirish manbalari tahlili ta’mirning butun yuki budjetdan tashqari manbalarga tushishini va u qoldiq tamoyilida moliyalashtirilishini ko‘rsatdi: daromadlar taranglashgan davrda aynan ta’mir xarajatlari birinchi bo‘lib qisqartiriladi, yil yakunida foydalanilmagan mablag‘ esa keyingi yil smetasida boshqa xarajat guruhlariga qayta taqsimlanadi.

Shu bois budjet tashkilotining budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalarida kapital ta’mirlash maqsadida rejalashtirilib sarflanmay qolgan qismini kelgusi yil smetalarida xarajat guruhlariga qayta taqsimlamasdan aynan shu maqsadda sarflanishini ta’minlash taklif etildi. Mexanizm uch elementdan iborat: rivojlantirish jamg‘armasi smetasida moddiy-texnika bazasini saqlashning himoyalangan maqsadli yo‘nalishi ajratiladi va unga minimal ulush vakolatli boshqaruv organi qarori bilan belgilanadi; yil davomida ushbu mablag‘larning boshqa maqsadlarga yo‘naltirilishi cheklanadi; yil yakunida sarflanmay qolgan qoldiq keyingi yilga aynan shu maqsadda o‘tkaziladi.

Taklifning miqdoriy asosi tahlil natijalaridan kelib chiqadi: ta’mirlash intensivligini hech bo‘lmaganda 2023-yil darajasida saqlash uchun joriy bazada yiliga qariyb 7,2 mlrd. so‘m zarur, uzoq muddatli tamoyil esa ta’mir xarajatlarini o‘rtacha yillik amortizatsiya sur’atiga mutanosib ushlab turishdir. Natijada hisobot yilida bajarilgan barcha qurilish-ta’mirlash ishlari yagona mezon asosida toifalanib, ularning 2 230,0 mln. so‘mi kapital, 494,0 mln. so‘mi joriy xarajat sifatida tan olingan, kapital xususiyatli xarajatlar 241 100/3 ishchi schyoti orqali kapitallashtirilgan, balansdagi bino va inshootlar to‘liq registrga kiritilgan.

Muhokama

Olingan natijalar xorij tajribasida kuzatilgan umumiy qonuniyatni tasdiqlaydi: rivojlangan tizimlarda keyingi xarajatlarni tan olish qoidasi ham bizdagi kabi tamoyil ko‘rinishida yozilgan,

ammo u miqdoriy chegaralar, hujjat shakllari, registrlar va uslubiy qo‘llanmalar bilan to‘ldirilgan [9, 13, 14]. 8-son BHS bilan IPSAS 17 o‘rtasidagi farq qoidaning o‘zida emas, uning amaliy mexanizm darajasiga yetkazilganida ekani aniqlandi.

Mahalliy tadqiqotlar bilan qiyoslaganda muallif yondashuvining farqi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: birinchidan, tan olish qoidasi texnik, vaqt va miqdoriy elementlarning hujjatlashtirilgan kombinatsiyasi sifatida qurilgan; ikkinchidan, mezon ish turlari bo‘yicha ishchi schyotlar va obyektlar registri bilan yagona hisob mexanizmiga birlashtirilgan; uchinchidan, hisob takliflari ta’mirni moliyalashtirishning smeta mexanizmi bilan bog‘langan; to‘rtinchidan, takliflar yirik budjet tashkilotining besh yillik real hisobot ma’lumotlarida sinovdan o‘tkazilgan. Retrospektiv baholash shuni ko‘rsatdiki, taklif etilgan mexanizm 2021-yildan amalda bo‘lganida besh yillik 25,8 mlrd. so‘mlik kapital ta’mir aktivlashtirilib, bino va inshootlar qiymati 2025-yil oxirida 69,6 mlrd. so‘m emas, qariyb 95 mlrd. so‘m darajasida shakllangan bo‘lar edi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

1. Tadqiqot obyektining 2021-2025-yillardagi hisobotlari tahlili ta’mirlash xarajatlarining 16,1 mlrd. so‘mdan 1,1 mlrd. so‘mgacha qisqarganini, ta’mirlash intensivligining 23,1 foizdan 1,4 foizgacha pasayganini va 25,8 mlrd. so‘mlik kapital ta’mirlash xarajatlari aktivlashtirilmasdan davr xarajatiga yozilganini ko‘rsatdi. Muammolarning ildizi - 8-son BHSdagi tan olish tamoyilining tekshiriladigan mezon va majburiy protseduralar bilan ta’minlanmaganidir.
2. Kapital ta’mirlash xarajatlarini aniqlashning uch elementli mezoni - texnik, vaqt va miqdoriy elementlar kombinatsiyasiga asoslangan holda xarajatlarning kamida ikki elementi bajarilgan taqdirda kapitallashtirilishini belgilash va uni toifalash qarori varag‘i orqali hujjatlashtirish taklif etiladi. Mezon chegaraviy holatlarda ham bir ma’noli natija berib, toifalashni subyektiv baholashdan hujjatga tayangan, tekshiriladigan jarayonga aylantiradi.
3. Qurilish-ta’mirlash xarajatlarini ularning turlari kesimida “Bino va inshootlarga kapital qo‘yilmalar” schyoti tarkibida 241 100/1 - “Bino va inshootlarni yangi qurishga kapital qo‘yilmalar”, 241 100/2 - “Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilishga kapital qo‘yilmalar”, 241 100/3 - “Bino va inshootlarni kapital ta’mirlashga kapital qo‘yilmalar” ishchi schyotlarida hisobga olish taklif etiladi.
4. Qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobida bino va inshootlar obyektlarining yagona registrini qo‘llash hamda obyekt kodini hisob tizimida majburiy analitik belgi sifatida joriy etish taklif etiladi. Registr ta’mirlash xarajatlarini obyektlar kesimida kuzatish imkonini beradi.
5. Budjet tashkilotining budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalarida kapital ta’mirlash maqsadida rejalashtirilib sarflanmay qolgan qismini kelgusi yil smetalarida xarajat guruhlariga qayta taqsimlamasdan aynan shu maqsadda sarflanishini ta’minlash taklif etiladi. Bu ta’mirni moliyalashtirishni daromad tebranishlaridan himoya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Federation of Accountants (IFAC), CIPFA. International Public Sector Financial Accountability Index: 2025 Status Report. - New York: IFAC, 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. - www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. - www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son “2025-2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. - www.lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. 2013-yil 26-dekabr, O‘RQ-360-son. - www.lex.uz

6. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O‘RQ-404-son “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. - www.lex.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining 8-son standarti “Ko‘chmas mulk, bino va jihozlar” (Adliya vazirligida 2019-yil 20-martda 3144-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).
8. O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining 2-son standarti “Yagona schyotlar rejasi” (Adliya vazirligida 2018-yil 20-oktabrda 3078-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).
9. International Public Sector Accounting Standards Board (IPSASB). IPSAS 17 “Property, Plant, and Equipment” // Handbook of International Public Sector Accounting Pronouncements. - New York: IFAC, 2023.
10. International Public Sector Accounting Standards Board (IPSASB). IPSAS 45 “Property, Plant, and Equipment”. - New York: IFAC, 2023.
11. Governmental Accounting Standards Board (GASB). Statement No. 34 “Basic Financial Statements - and Management’s Discussion and Analysis - for State and Local Governments”. - Norwalk: GASB, 1999.
12. Governmental Accounting Standards Board (GASB). Statement No. 35 “Basic Financial Statements - and Management’s Discussion and Analysis - for Public Colleges and Universities”. - Norwalk: GASB, 1999.
13. Federal Accounting Standards Advisory Board (FASAB). SFFAS 42 “Deferred Maintenance and Repairs”. - Washington, D.C.: FASAB, 2012.
14. HM Treasury. Government Financial Reporting Manual (FReM). - London: HM Treasury.
15. Федеральный стандарт бухгалтерского учёта для организаций государственного сектора «Основные средства» (утв. приказом Минфина России от 31.12.2016 № 257н).
16. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi: darslik. - Toshkent: “Sharq” NMAK, 2004. - 416 b.
17. Mehmonov S.U., Ubaydullayev D.Y. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: darslik. - Toshkent: “Sano-standart”, 2013.
18. Ostonokulov A. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish: monografiya. - Toshkent: “VNESHINVESTPROM”, 2021. - 208 b.
19. Ostonokulov A.A. Budjet hisobini isloh qilish sharoitida davlat sektorida hisob va hisobotning xalqaro standartlarini qo‘llash masalalari // “Moliya” ilmiy jurnali. - Toshkent, 2020. - №4. - B. 45-52.
20. Xodjayev A.S. Oliy ta’lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va ichki auditini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent: Bank-moliya akademiyasi, 2023. - 70 b.
21. Buzrukxonov S.M. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida oliy ta’limni moliyalashtirishni takomillashtirish: i.f.d. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent: TDIU, 2022. - 74 b.
22. Abdujalilova D.A. Oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt shakli mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar va ular hisobining amaldagi holati // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. - 2023. - №10.
23. Abdulrahman M. Capital Expenditure Accounting Practices in Public Sector Institutions // Journal of Public Budgeting & Finance. - 2022. - Vol. 41(3). - P. 188-207.
24. Goldsmith M. Infrastructure Governance and Public Asset Sustainability // Public Administration Review. - 2023. - Vol. 83(1). - P. 77-95.
25. Azizova Z.L. Budjet tashkilotlarida qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobining asoslari // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” ilmiy elektron jurnali. - 2024. - №8. - B. 1051-1056.
26. Azizova Z.L. Davlat sektoridagi tashkilotlarda qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobining xorij tajribasi // “Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali. - 2025. - №11. - B. 534-543.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

27. Azizova Z.L. Byudjet tashkilotlarida qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobining uslubiy jihatlari // “Muhandislik va iqtisodiyot” ilmiy-amaliy jurnali. - 2025. - №12. - B. 206-211.